

Qashqadaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Qashqadaryo viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1- aprel holatiga ko'ra viloyatda 3023 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 649 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 591 tasi (19,6 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 300 tasi (9,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga, 254 tasi (8,4 %) kiyim ishlab chiqarishga, 249 tasi (8,2 %) tog'-kon sanoati bilan bog'liq boshqa faoliyat va 196 tasi (6,5 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- aprel holatiga ko'ra



II. Qashqadaryo viloyat sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda korxonalar tomonidan 10 911,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd. so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Qashqadaryo viloyati	10 911,5	107,4
Qarshi sh.	1 486,9	110,9
Shahrisabz sh.	133,5	106,8
tumanlar:		
G'uzor	1 254,8	102,1
Dehqonobod	295,8	113,8
Qamashi	179,2	101,2
Qarshi	587,9	92,2
Koson	631,7	126,8
Kitob	494,8	105,6
Mirishkor	193,8	102,2
Muborak	277,0	107,6
Nishon	2 537,5	107,7
Kasbi	775,0	105,2
Ko'kdala	66,8	106,5
Chiroqchi	106,0	103,2
Shahrisabz	245,7	107,5
Yakkabog'	301,6	106,0

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon tumanida (14 506,1 ming so'm), G'uzor tumanida (5 395,6 ming so'm), Qarshi shahrida (4 848,1 ming so'm), Kasbi tumanida (3 480,2 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2 929,8 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Koson tumanida (124,0 %), Dehqonobod tumanida (111,5 %), Qarshi shaharida (109,0 %), Shahrisabz tumanida (106,0 %) Muborak tumanida (105,7 %) va Nishon tumani (105,3 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 8 907,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (81,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 443,8 mlrd. so'm (4,1 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 491,5 mlrd. so'm (13,7 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 69,2 mlrd. so'm (0,6 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi

2026- yilning yanvar-mart oylarida

III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 7,6 ming tonna Yumshoq bug'doy va spelta uni (2025- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 36,2 % ga kamaygan), 33,3 ming tonna paxta tolasi (56,0 % ga ko'paygan), 102,4 ming litr aroq mahsulotlari (69,8 % ga kamaygan) hamda 55,7 ming tonna kaliy xlorid (15,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart*	2025- yil yanvar-mart*	2026- yil yanvar-mart*
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	14,2	11,9	7,6
ip kalava, tonna	14 367,4	20 543,0	15 878,9
Aroq, ming litr	460,3	339,2	102,4
Kaliy xlorid, ming t.	46,3	43,8	55,7
Dizel yoqilg'isi, ming t.	56,8	64,6	43,0
Poliyetilen, ming t.	36,6	35,9	36,1
Neft, ming t	2,7	2,2	1,7
Tabiiy gaz, mln kub.m.	17,1	107,8	105,0
Gaz kondensati, ming t.	26,7	26,1	32,2
Portlandsement, ming t.	244,0	390,2	454,2

**2025-2026- yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


. Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 94,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,0 % (2025- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 113,9 %)ni tashkil etdi

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,3 % ni (2025- yilning yanvar-mart oylarida 1,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 16,2 % (5,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,2 % (32,7 %), quyi texnologiyali 39,7 % (60,6 %)ni tashkil etgan



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026- yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 59,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 74,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart*	2025- yil yanvar-mart*	2026- yil yanvar-mart*
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	1 954,0	2 135,5	1 647,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 041,8	864,0	269,6

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 11,6 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 2 martaga ko'payishi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-mart*	2025- yil yanvar-mart*	2026- yil yanvar-mart*
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	20 708,0	37 202,6	41 531,4
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	2 923,4	3 160,6	6 418,6

*2025-2026- yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 656,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,5 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 32,5 % ni tashkil etgan.





V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://www.qashstat.uz/uz/>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Manzil:

180100, Qashqadaryo viloyati,
Mustaqillik ko'chasi, 2 B-uy
75 221-32-36 (7010)
